

## JANUBIY KOREYANING TRAVEL JURNALISTIKASI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI

*Saribayeva Dilfuza Asan qizi,  
O'zJOKU, xalqaro jurnalistika  
yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada travel jurnalistikaning o'ziga xos jihatlari Janubiy Korea matbuoti misolida o'rganilgan. Davriy nashrlarda e'lon qilingan materiallarning mamlakat turizmi taraqqiyotidagi o'rni misollar yordamida tahlil qilingan. Jumladan, OAVning tibbiy turizm rivojiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Janubiy Koreya, travel jurnalistika, meditsina turizmi, sayyohlar, Koreya turizmi gazetasi.

Sayohat jurnalisti kim? Sayohat jurnalisti turli joylarga tashrif buyurib, xabarlar tayyorlash va televideniye hamda gazetalar orqali axborotlarni yoritib beradigan shax. Ular yangilik yoki voqealarni tasvirlash uchun hikoya qiladilar, manzillarga sayohat qilishadi va odamlardan intervyu olib to'plagan ma'lumotlarini boshqa sayyohlarni jalb qilish uchun chop etishadi. Sayohat jurnalistikasi - bu ommaviy iste'molchiga sayohat haqida ma'lumot beradigan, tarix, geografiya, madaniyat, san'at, turizm, axloq, falsafa va hokazo mavzularni yoritib beradigan bir tur. Sayohat jurnalisti-manzillarga sayohat qiladi, odamlardan intervyu oladi va to'plagan ma'lumotlarini tahrirlab, tushunarli va sodda tilda ommaviy axborot vositalari orqali chop etib, sayyohlarni jalb qiladi. Sayohat muallifi bo'lish uchun aniq talablar yo'q, lekin berilayotgan axborot ishonchli va qiziqarli bo'lishi lozim.

Janubiy Koreya jahonning eng qadimgi tamaddunlaridan biri hisoblanadi. Bu davlat hududida Quyi Paleolit davridan odamlar yashab kelgani tarixiy manbalardan ma'lum. Uch Koreys Qirolligi davridan boshlab hozirgi kungacha Koreya juda katta davrni bosib o'tgan. 한국 관광 신문 ya'ni Koreya turizm gazetasi orqali yoritilayotgan materiallar shuni ko'rsatadi-ki, bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar orasida Janubiy Koreya o'zining ichki va tashqi turizmi bilan iqtisodiy barqarorlikka erishayotgan davlat hisoblanadi. Shu o'rinda bu turizm oqimining eng katta qismi


mamlakatning travel jurnalistik materiallari orqali kirib kelayapti. Mustaqillikka erishgandan so'ng qisqa vaqt ichida bu davlat tez sur'atlarda o'sdi va qo'shni davlatlarni lol qoldiradigan darajada rivojlana boshladi. Tabiatining go'zalligi, bozorining xilma xilligi hamda meditsinasining zamonaviyligi bilan boshqa davlatlar e'tiboriga tusha boshladi. 2012-yilda Janubiy Koreyaga 11,1million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, bu ko'rsatkich esa Osiyo davlatlari orasida 6-o'ringa chiqqanligini bildiradi. Chet davlatlardan kelayotgan sayyohlarning aksariyat qismi Sharqiy Osiyoning Yaponiya, Xitoy, Tayvan va

Gonkong mamlakatlaridan tashrif buyurayotganlardir. Ilgari Janubiy Koreyaliklar Koreya urushi va undan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar, shuningdek, hukumatning chet elga chiqishdagi cheklovlari tufayli chet elga sayohat qilishlari mumkin emas edi, pasportlar faqat tor doiradagi sabablarga ko'ra beriladi, masalan, davlat korxonalarini uchun chet elga sayohat qilish, texnik tayyorgarlik uchun va hokazo. 1960-yillardan buyon chet elga sayohat cheklovlari va qoidalari chet elga valyuta chiqindilarining chet elga chiqishini oldini olish uchun doimiy ravishda ko'rib chiqildi. Biroq, 1980-yillarda Janubiy Koreya jamiyatining globallashtirish uchun xalqaro sayohatni liberallashtirish amalga oshirila boshlandi. O'shandan beri janubiy koreyaliklar xorijda bimalol sayohat qilish imkoniga ega bo'ldi.

Zamonaviy janubiy koreyaliklarning band turmush tarzi, oila yoki do'stlar bilan ta'tilda vositachilik qilishda qiyinchiliklarga olib keladigan va bir kishilik uy xo'jaliklarining ko'payishi janubiy koreyaliklarning yolg'iz sayohat qilish sonining ko'payishiga yordam berdi. Shu bois, Janubiy Koreyaga yaqin, janubiy koreyaliklar yakka o'zi qisqa muddatli ta'tilga borishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarning mashhurligi ortib bormoqda. 2016-yildagi samolyot chiptalari tahlili natijalariga ko'ra, janubiy koreyaliklar uchun eng ko'p xorijiy yo'nalish Osaka, undan keyin Bangkok va Tokio. Bundan tashqari, Osaka, Tokio va Shanxayda janubiy koreyaliklarning qayta tashrif buyurish darajasi yuqori. Biroq, London, Parij va Rim kabi Yevropa yo'nalishlari geografik masofalar, qimmat aviachiptalar va yuqori narxlar tufayli qayta tashriflar reytingida tushib ketdi. Xalqaro sayyohlar odatda 2006-yilda dunyoning eng

yaxshi aeroporti deb topilgan Seul yaqinidagi Incheon xalqaro aeroporti orqali mamlakatga kirishadi. Shuningdek, Pusan va Jejudagi xalqaro aeroportlar tez-tez ishlatiladi.

"Koreys to'liqini" deb nomlanuvchi Koreya ommabop madaniyati so'nggi paytlarda ushbu mamlakat mashxurligiga sabab bo'lib, sayyohlar kelishini oshirdi. 한국 관광 신문 ya'ni Koreys turizm gazetasi orqali yoritilib borayotgan turli mavzulardagi materiallar orqali davlatning nafaqat ichki balki tashqi sayyohlari ham sezilarli o'sganini ko'rsak bo'ladi. Bu ko'rsatkichda 2012-yildan 2014-yilgacha sayyohlar soni 16,1milloin kishini tashkil qilib, 2012-yildagi ko'rsatkichga qaraganda 8,2foizga yuqorilagan. Janubiy Koreyaga xorijdagi sayyohlar orqali kirib keladigan bir yillik daromad 19 469,9million dollarni tashkil qiladi. Bu foizlar ichida eng ko'pini meditsina sohasidagi turizm qamrab olgan. "Koreya to'liqini" endilikda Koreya tibbiyoti to'liqinini yaratdi va Koreya kelajakdagi tibbiyot sohasini boshqaradigan global tibbiy turizm markazi sifatida ko'tarila boshladi. Ilg'or tibbiy asbob-uskunalari, aqlli shifokorlari, tibbiy axborot texnologiyalari hamda innovatsion davolanishdagi muvaffaqiyatlari bilan Koreya endilikda "shifokorlar tayyorlash beshigi"ga aylanayotgani haqida Koreya turizm gazetasida bong urmoqda. Janubiy Koreya Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ro'yhatdan o'tgan professional tibbiy turizm agentliklari orqali turizm sayyohlarni aeroportdan kutib olishdan tortib, shifoxonaga yotqizish, davolash va jarrohlik ishlarigacha ishonchli turizm xizmatlarini taqdim etadi. Hukumat tomonidan tasdiqlangan Xalqaro tibbiy sayohat koordinatorini sertifikatlash tizimi orqali Koreya tibbiy sayyohlarning qoniqish darajasini oshirmoqda. Koreya tibbiy turizmning eng katta afzalliklari tibbiy yordam va axborot texnologiyalarining bir biri bilan yaqinlashuvi sababdir. 한국 관광 신문 da yozilishicha Korona virus butun dunyoni qamrab olgandan keyin turizm sohasi ham sezilarli darajada pastladi va bu kamayish 2-3 yilni tashkil qildi. Lekin pandemiya davridan keyin Koreyaning tibbiyot turizmi katta tezlikda o'sa boshladi. Quyidagi ko'rsatkich orqali ko'rishimiz mumkin



Bu ko‘rsatkichlar Janubiy Koreya meditsina turizmini rivojlanganini ko‘rsatadi. Yil sayin oshib borayotgan sayyohlar, nafaqat meditsina balki davlatning ichki sayyohatlik zonalariga ham ham tashrif buyurmoqda.


Qayd etish joizki, Janubiy Koreya fuqarolari Googledan qidiruv tizimi sifatida kamdan-kam foydalanadilar. Buning o‘rniga Janubiy Koreya Reddit va Yahooga o‘xshash NAVER portalidan foydalanadi. Portalda turistik yo‘nalish haqida ma’lumot qidirishda mashhur bo‘lgan ikkita vosita mavjud – NAVER Blog va NAVER Café (forum).

NAVER platformasida travel jurnalistlar sayyohlar uchun qayerda qolish, qayerda ovqatlanish shu jumladan ular tashrif buyurishlari mumkin bo‘lgan do‘konlar va savdo markazlari haqida ma’lumotlar joylab borishadi.

Turistik ma’lumotlar orqali sayyohlarning 76,8% 32,5 foizi esa Naver va Daum kabi saytlardan foydalanadi.

Koreyalik sayyohlar sayohatni rejalashtirishda ko‘pincha Internet manbalaridan foydalanadilar.

turistlarning atigi 30 foizi sayyohlik agentliklari xizmatlaridan foydalanadi. Statistik ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi asosiy ma’lumotlar manbalari:



Bu ko'rsatkichlar natijasida shu aniq bo'ladi-ki, mamlakatning ichki va tashqi turizmining katta qismi televediniye, undan keyin tur agentliklari, internet resurs va do'stlaridan olgan ma'lumotlar orqali tashrif buyurishadi ekan. Demak, shundan ko'rinib turibdi-ki, Janubiy Koreya travel jurnalistikasi ancha jadal sur'atlarda o'sib bormoqda.

Janubiy Koreya travel jurnalistikasi keng qamrovda rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Davlat nashrlarida chop etilayotgan materiallar har kun yangilanadi. OAV orqali uzatilayotgan xabarlar orqali aholi va chet elliklar qaysi turizm zonasiga qancha harajat ketishi va boshqa rejalarni oson tuza olishadi. Hatto aeroportdagi chegirma biletlargacha bilish mumkin. Mamlakatning ichki va tashqi turizmining yuqorilab borishiga eng katta turtki rang barang va qiziqarli sayt va PR matnlar sabab bo'la oladi. Shunday ekan, Janubiy Koreya so'nggi 15 yil ichida nafaqat meditsinasi balki sayyohlar ko'lami bo'yicha dunyoda birinchilikni egallab kelmoqda. Shu ketishida mamlakat iqtisodiyoti tashqi va ichki turizmi orqali eng baquvvat davlatlar sirasiga kiradi. Bunga eng katta hissani travel jurnalistlar va ular yoritib borayotgan materiallar sabab bo'la oladi desam adashmayman.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNTWO. „UNTWO World Tourism Barometer, Vol.5 No.2“ ([http://www.tourismroi.com/Content\\_Attachments/27670/File\\_633513750035785076.pdf](http://www.tourismroi.com/Content_Attachments/27670/File_633513750035785076.pdf)) (iyun 2008). 19-avgust 2008-yilda asl nusxadan arxivlandi

[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy\\_Koreya\\_turizm\\_sanoati#cite\\_re-](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_turizm_sanoati#cite_re-)

2. Kolesnikov-Jessop, Sonia. „South Korea Sets Its Sights on Foreign Tourists“ (<https://www.nytimes.com/2010/11/11/business/global/11iht-sk-hotel.html?src=busln>). The New York Times ([https://uz.m.wikipedia.org/wiki/The\\_New\\_York\\_Times](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/The_New_York_Times)) (11-noyabr 2010-yil).

3. „Korea Monthly Statistics“ (<https://kto.visitkorea.or.kr/eng/tourismStatics/keyFacts/KoreaMonthlyStatistics.kto>).
4. „Statistics Korea: Resort island of Jeju is booming“ (<https://www.eturbonews.com/136313/statistics-korea-resort-island-jeju-booming>).
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (<http://www.oecd.org/korea/33649881.pdf>), NATIONAL TOURISM POLICY REVIEW REPUBLIC OF KOREA, July 2002, Page 2, Table 2  
[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy\\_Koreya\\_turizm\\_sanoati#cite\\_ref-](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_turizm_sanoati#cite_ref-)
6. „South Korea in hot pursuit of Indians“ (<http://www.ttg mice.com/article/south-korea-in-hot-pursuit-of-indians/>). TTGmice. 28-fevral 2014-yilda asl nusxadan arxivlandi (<https://web.archive.org/web/20140228122052/http://www.ttg mice.com/article/south-korea-in-hot-pursuit-of-indians/>). Qaraldi: 14-mart 2013-yil.  
[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy\\_Koreya\\_turizm\\_sanoati#cite\\_ref-](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_turizm_sanoati#cite_ref-)
7. „국민여행총량“ ([http://www.index.go.kr/potal/enaraIdx/idxField/userPageCdo?idx\\_cd=1652](http://www.index.go.kr/potal/enaraIdx/idxField/userPageCdo?idx_cd=1652)) (ko) (23-sentabr 2016-yil).  
[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy\\_Koreya\\_turizm\\_sanoati#cite\\_ref-](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_turizm_sanoati#cite_ref-)
8. 이 (Lee), 태훈 (Taehun). „국내 관광 5% 늘면 1조2000억 효과“ (<http://www.hankyung.com/news/app/newsview.php?aid=2016090621711>) (ko). hankyung.com (6-sentabr 2016-yil). Qaraldi: 31-oktabr 2016-yil.  
[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy\\_Koreya\\_turizm\\_sanoati#cite\\_ref-](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_turizm_sanoati#cite_ref-)
9. „2015년 12월 외래객입국·국민해외여행객 및 관광수입·지출 동향“ (<https://www.google.co.kr/webhp?sourceid=chromeinstant&ion=1&espv=2&ie=UTF-8#>). 한국 관광 통계 (koreyscha). 2016.  
[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy\\_Koreya\\_turizm\\_sanoati#cite\\_ref-](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Janubiy_Koreya_turizm_sanoati#cite_ref-)
10. „한국인이 가장 많이 떠나는 즉흥 여행 1위 '오사카'...2위 '도쿄'“. 국제신문(Kookje News) (8-sentabr 2016-yil).